# YASHIL IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal





# “MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR SAQLASHDA “YASHIL IQTISODIYOT”, “YASHIL MOLIYA”, “YASHIL BUXGALTERIYA” VA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI ILMIY-AMALIY INTEGRATSIYALASHTIRISH DOLZARBLIGI”

*Maqola va tezislar to‘plami*

2025-YIL
30-MAY

Academic Resource Index ResearchBib
OpenAIRE
ULRICHSWEB™ GLOBAL SERIALS DIRECTORY
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU
OPEN ACCESS
ROAD
BASE
Crossref
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 60 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 11-martda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Viktorovna,** Candidate of Economic Sciences (Moscow)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Omborxonada wms tiziminidan foydalanishni afzalliklari ........ 16
G'ofurov Shoxjaxon Abdumajit o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich
Интеграция проектного офиса в корпоративную структуру строительной компании, работающей по epc-контрактам ........ 21
Махмудов Сардор Козим угли
Investitsion muhit va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili ........ 24
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li
Tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi itimoiy-iqtisodiy qarashlar tahlili ........ 27
Abduvohidov Behzod XXX
Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari ........ 30
Jo'rayev Eldor Berdibekovich
O'zbekistonda davlat budjetini kupaytirishda soliqlarni ahamiyati ........ 34
Karimova Gulbahor Normurodovna
Dunyo oziq-ovqat bozorining dinamik rivojlanishidagi o'zgarishlar, qiyinchiliklar va ularning yechimlari ........ 36
Tolipova Baxtigul Farxodovna
Исследование тепловых и диффузионных процессов при азотировании зубчатых колес в вакуумной среде ........ 39
Жасурбек Юлдашбоевич Холмирзаев
Axborot tizimlaridan foydalangan holda tashkilotni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishni takomillashtirish ........ 49
Xujamova Shahrizoda Otabek Qizi
Sanoat sektorida dekarbonizatsiya va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish strategiyalari ........ 52
Bobobekov Ergash Abdumalikovich
Sanoat rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Surxondaryo viloyati misolida) ........ 56
Xalmuratov Zakirjan Mekkamovich
"Yashil iqtisodiyot" – barqaror taraqqiyot omili ........ 58
Lapasova Kamola Farhod qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# "YASHIL IQTISODIYOT" – BARQAROR TARAQQIYOT OMILI

**Lapasova Kamola Farhod qizi**
TDIU magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining mazmuni, xalqaro va milliy darajadagi ahamiyati yoritilgan. Unda barqaror rivojlanish, ekologik muvozanat va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan strategiyalar tahlil qilinadi. O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, xususan "Yashil makon" loyihasi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivoji ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, qayta tiklanuvchi energiya, resurslar samaradorligi, "Yashil makon", O'zbekiston – 2030 strategiyasi, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Abstract: This thesis outlines the content of the "green economy" concept and its international and national significance. It analyzes strategies aimed at sustainable development, ecological balance, and efficient resource utilization. The measures being implemented in Uzbekistan to introduce the "green economy," specifically the "Green Space" project and the development of renewable energy sources, are discussed.

Key words: green economy, sustainable development, ecological security, renewable energy, resource efficiency, "Green Space," Uzbekistan – 2030 strategy, environmental protection.

Аннотация: В данной диссертации раскрыто содержание концепции "зеленой экономики", её международное и национальное значение. Анализируются стратегии, направленные на устойчивое развитие, экологический баланс и эффективное использование ресурсов. Рассматриваются меры, предпринимаемые в Узбекистане для внедрения "зеленой экономики", в частности, проект "Зеленое пространство" и развитие возобновляемых источников энергии.

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, экологическая безопасность, возобновляемая энергия, эффективность ресурсов, "Зеленое пространство", стратегия Узбекистан – 2030, охрана окружающей среды.

Jahonda yuz berayotgan global ekologik muammolar va sayyoramiz aholisi o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi paydo bo'lishiga olib keldi. Dunyoda bir necha yillardan buyon iqlim o'zgarishiga qarshi maqsadli kurash davom etayotgani ana shu yo'ldagi sa'y-harakatlar natijasidir. Chunki kelajakni usiz tasavvur etish mushkul. "Yashil iqtisodiyot"ni barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi, desak mubolag'a emas. Uning asosiy maqsadi, tabiiy resurslarni saqlash va global ekologik halokatning oldini olishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda iqtisodiyotda "yashil" iqtisodiyot masalasida to'rtta asosiy yondashuv mavjud:

− umumiqtisodiy – iqtisodiyotni ekologizatsiyalashtirish;

− tarmoqli – "yashil" tarmoqlarni rivojlantirish;

− texnologik – ekologik toza oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarini yaratishni ta'minlaydigan yangi texnologiyalar;

−sivilizatsion/axloqiy-texnologik – jamiyat madaniyati va qadriyatlarini o'zgartirish orqali ongli o'tish[1].

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish borasida xalqaro miqyosda yetarli tajriba to'plangan va bugungi kunda muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Rivojlangan davlatlarning "yashil iqtisodiyot" bo'yicha tajribasini o'rganish va undagi eng muhim yo'nalishlarni joriy etish katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amalga oshirish uzoq muddatli barqaror rivojlanish siyosatining muhim jihati hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi iqlim muvozanatiga erishish, biologik xilma-xillikni saqlash, hayot sifatini yaxshilash hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun ekologik toza va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni faol ravishda targ'ib qilmoqda[2].

Aytish joizki, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida bu boradagi ustuvor vazifalar belgilab olingan. Xususan, BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg'un "yashil

1 Вукович Н. А. "Зеленая" экономика: определение и современная эколого-экономическая модель // Вестник УрФУ. Серия экономика и управление. 2018. Т. 17. № 1. С. 128–145.

2 https://ecosphere.press/2021/05/31/evropejskij-zelenyj-kurs-uglerodnyj-nalog-i-chto-oni-znachat-dlya-rossii/

transformatsiya"sini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta'minlash, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash bilan birga iqtisodiy o'sishning yangi "yashil rivojlanish" modeliga o'tish bo'yicha bir qancha maqsadlar belgilab olingan[3].

Barqaror o'sish "yashil iqtisodiyot" kontekstida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolar o'rtasida muvozanatga erishishni anglatadi. Bu iqtisodiy rivojlanishni ekotizimlar va kelajak avlodlar farovonligiga zarar yetkazmasdan ta'minlaydigan strategiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Biroq, "yashil iqtisodiyot" doirasida barqaror o'sishni ta'minlash turli muammolarni keltirib chiqaradi, jumladan, energetika va ishlab chiqarish infratuzilmasini o'zgartirish zarurati, siyosiy va institutsional muhitda o'zgarishlar kiritish, an'anaviy iqtisodiy tarmoqlarning qarshiligini yengib o'tish masalalari shular jumlasidandir.

O'zbekiston ham iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi tufayli global ekologik muammolarga duch kelmoqda. Shu sababli, mamlakat barqaror rivojlanish yo'lida muhim qadamlarni qo'ymoqda. 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilgan. O'zbekistonda "yashil" rivojlanish milliy harakat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan turli ekologik loyihalar ilgari surilmoqda. Jumladan, "Yashil makon" milliy loyihasi doirasida o'rmonlarni tiklash va yashil hududlarni kengaytirish, shuningdek, quyosh va shamol elektr stansiyalarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda[4]. Ushbu tadbirlar ekologik holatni yaxshilash bilan birga mamlakatning energetik mustaqilligini kuchaytirishga va aholi hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tabiiy gaz, chiqindilar va chorvachilik sohalarida metan emissiyasining bazaviy holati aniqlanadi. Umumiy quvvati 4,5 gigavattli yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish, quvvati 785 megavattli quyosh panellari o'rnatish, quvvati 225 megavatt bo'lgan gidroelektr stansiyalari barpo etish orqali jami qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi elektr energiyasi ishlab chiqarishda 26 foizga, jami generatsiya quvvatlari tarkibidagi ulushi 40 foizga yetkaziladi. Yangi quriladigan bino inshootlari va uy-joylarning energiya samaradorligidan kelib chiqib, "yashil bino" sertifikati joriy qilinadi. Mamlakatimizda "yashil" texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalarni hal etib borish har doim ustuvor bo'lib qoladi. Iqtisodiy o'sishning yangi "yashil" rivojlanish modeliga o'tish, ekologik vaziyatni yaxshilash va dunyodagi ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qilish barobarida odamlar turmush tarziga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Вукович Н. А. "Зеленая" экономика: определение и современная эколого-экономическая модель // Вестник УрФУ. Серия экономика и управление. 2018. Т. 17. № 1. С. 128–145.
2. Mustafaev, M. (2018). Yashil iqtisodiyot va resurslarni boshqarish: O'zbekiston tajribasi. Tashqi savdo va iqtisodiy integratsiya, 1(12), 51-60.
3. Jumayev, R. (2019). Ekologik xavfsizlik va yashil iqtisodiyotga o'tish: O'zbekistonning iqtisodiy modeli. Iqtisodiyot va ekologiya, 5(9), 38-44.
4. Tursunov, T. (2019). Yashil iqtisodiyot va unga asoslangan strategiyalar. Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot.
5. Akbarov, F. (2020). Yashil iqtisodiyot: barqaror rivojlanish va energiya samaradorligi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
6. Saidov, Z. (2020). Yashil iqtisodiyot: barqaror rivojlanish va ekologik yangilanish. Iqtisodiy taraqqiyot va ilm-fan, 8(14), 40-46.
7. Ismailov, D. (2021). Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va yashil iqtisodiyot. Iqtisodiy va ekologik barqarorlik, 1(3), 29-35.
8. https://ecosphere.press/2021/05/31/evropejskij-zelenyj-kurs-uglerodnyj-nalog-i-chto-oni-znachat-dlya-rossii/
9. https://lex.uz/uz/docs/7369703
10. https://review.uz/post/gosprogramma-god-okrujayushey-sred-i-zelenoy-ekonomiki




3 https://lex.uz/uz/docs/7369703
4 https://review.uz/post/gosprogramma-god-okrujayushey-sred-i-zelenoy-ekonomiki

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025-yil, may.**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz